

## San'atkorlik safosi va tabiblik shifosi bilan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus mazmuni va uni amaliyotga joriy etish afzalliklari haqida tushunchalarni rivojlantirish, shuningdek, Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish maqsadida joylarda talaba-yoshlar o'rtasida qator tadbirlar o'tkazilmoqda.

Ana shunday tadbirlardan biri institutimizning yaqinda topshirilgan yangi o'quv binosida bo'lib o'tdi. Taniqli qiziqchi, tabib, aktyor va qo'shiqchi Sherqo'zi G'oziyevning nomini eshitgan keksa hamda o'rta avlod vakillarining labida tabassum jilva qilsa ajab emas. U o'z vaqtida ichakuzdi hangomalari, yumorga boy qo'shiqlari bilan yurtdoshlarimiz yuragidan joy olgan. Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H. Eshova hamda "Gumanitar fanlar" kafedrasini o'qituvchisi B. Muqimov tashabbusi bilan joriy yilning 6 sentyabr kuni "Yer resurslarini boshqarish" fakultetida talabalik baxtiga erishgan 1 kurs talabalari ushbu ijodkor bilan yaqindan uchrashish baxtiga muyassar bo'lishdi. Tadbirni institutning matbuot xizmati rahbari R. Jumaniyozov kirish so'zi bilan ochib berdi.



Taniqli ijodkor Sh. G'oziyev o'z nutqida talabalarga serqirra inson bo'lganligi, san'at sohasiga qanday kirib kelganligi, miniatyura san'ati va keyingi yillarda el sevgan san'atkor tabobatga qiziqib qolganligi to'g'risida talabalarga ma'lumot berib o'tdi. Suhbat davomida talabalarni kelgusida yaxshi mutaxassis bo'lib, Respublikamizga xizmat qilishi uchun yaxshi o'qib, puxta bilim olishlari haqida gapirib o'tdi.

Shuningdek, ular yaxshi bilim olishlari bilan birga har tomonlama yetuk bo'lishi, ya'ni madaniyatli va ma'rifatli kishilar bo'lish uchun tinmasdan mehnat qilish zarurligi haqida gapirishdi. Tadbir so'ngida ijodkorga qimmatli vaqtlarini ayamadan kelganligi uchun institutimiz rektorimiz tomonidan imzolangan tashakkurnoma topshirildi.



YeRB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Hurriyat Eshova va  
"Gumanitar fanlar" fanlar kafedrasini o'qituvchisi Bahridin Muqimovlar axboroti

Institut Matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov